

## ERGASHTIRUVCHI BOG'LOVCHILARNING PARADIGMATIK MUNOSABATLARI

**Sattarova Nargiza Oblanazarovna**

Andijon davlat universitetining  
Pedagogika instituti O'zbek va rus tillarini  
o'qitish metodikasi kafedrası o'qituvchisi  
nargiza787.mail.com  
telefon raqam +998996947877

**Annotatsiya:** Hozirgi o'zbek tilshunosligida sistem-struktur tahlilga ko'proq e'tibor berilgan. Buning natijasida tilning turli sathlarida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda va ko'plab ilmiy asarlar yaratilmoqda. Ammo til sthlarida hali ham o'z o'rnini aniq topa olmagan yordamchi so'zlar bundan mustasno. Ba'zi olimlar yordamchi so'zlarni morfologik sath birligi deb ta'riflasi, boshqalari morfemik sathga kiritadi. Yordamchi so'zlarning, ayniqsa, ergashtiruvchi bog'lovchilarning sistem-struktur tahlili esa bu qarashlarga aniqlik kiritishga yordam beradi. Ergashtiruvchi bog'lovchi vositalarning paradigmatic (uyadoshlik)munosabatiga ko'ra turlarini aniqlash uchun morfemika sathiga xos birliklarning o'zaro munosabati, bir-birini taqozo etuvchi, shartlangan aloqalar fonida olinishi zarur. Ergashtiruvchi bog'lovchilarning paradigmatic (uyadoshlik) munosabatiga ko'ra turlarga ajratish, ularning matn qismlari o'rtasidagi bog'lovchilik xususiyatlarini tahlil qilishga harakat qildik.

**Kalit so'zlar:** gipotaksis butunlik, sema, bog'lovchi vositalar, hokim qism, tobe qism, sistem-struktur, sinsemantik vositalar

### **Kirish:**

Ergashtiruvchi bog'lovchi vositalarning paradigmatic (uyadoshlik)munosabatiga ko'ra turlarini aniqlash uchun morfemika sathiga xos birliklarning o'zaro munosabati, bir-birini taqozo etuvchi, shartlangan aloqalar fonida olinishi zarur. Chunki ergashtiruvchi bog'lovchilarga xos imkoniyatning yuzaga chiqishi jarayonini kuzatish uchun ularni harakatda, nutq tarkibida olib qarash lozim. Aks holda ergashtiruvchi bog'lovchilar morfemalarning quruq, jonsiz to'plami bo'lib qolaveradi.

Munosabatlar deganda bir butunlikning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar va bog'lanishlar tushiniladi. Bunday aloqalar turli-tuman bo'lishi mumkin. Til birliklarining shakli, ma'nosi yoki bajarayotgan vazifasiga qarab turib ular o'rtasidagi munosabatlar va aloqalarning bir nechta turini ko'rsatib o'tsa bo'ladi. Ulardan eng asosiylari o'zaro o'xshashlik va farqlilikdir. Sistemaviy tilshunoslik bir butunlikni tashkil etgan qismlarning o'zaro munosabatini, ana shu munosabatlar orqali namoyon bo'layotgan farqlovchi (markaziy, differensial, distinktiv) va farqlamaydigan (chegara, nodifferensial, nodistinktiv) belgilarini aniqlash va ana shu yo'l bilan shakl (mohiyat) ni, lingvistik birliklarning modelini belgilashni bosh maqsad qilib qo'yadi. Chunki, har qanday o'rganilayotgan ob'yekt abstract konstrukt darajasiga olib chiqilgandagina o'zining haqiqiy ilmiy talqinini topadi. Shuning uchun sistemaviy tilshunoslikda jiddiy e'tibor moddiy tomonga emas, balki munosabatga qaratiladi. Boshqacha aytganda, haqiqiy lingvistik reallik sifatida muayyan bir tilning alohida fakti emas, balki sistema sifatidagi til e'tirof etiladi.

Til birligining mohiyatini uning o'zidan emas, balki mazkur til birligi bilan boshqa til birliklari o'rtasida amalga oshadigan munosabatlar va aloqalar tizimidan izlash lozimdir. G'.Abdurahmonov to'g'ri ta'kidlaganidek, "bog'langan qo'shma gapni tashkil etgan qismlar orasida ham...payt, qiyoslash, sabab-natija, izohlash va ayirish mazmun munosabatlari ifodalanadi...". Ergash gapli qo'shma gaplarda esa voqealar o'rtasidagi munosabat aniq va to'liq ifodalanadi. Bu munosabatlarning ifodalanishi va belgilanishida bog'lovchi va bog'lovchi vositalarning o'rni benihoya muhimdir. Ergashtiruvchi bog'lovchi vositalar ergash gapning mazmunini asosan tayin etishi mumkin. Bu bog'lovchi vositalar o'z mazmuniga ko'ra muayyan munosabatga kirishayotgan

voqealarni faqat bog'lash uchungina xizmat qilmaydi, balki unga qo'shimcha ravishda yana turli modal ma'nolar, so'zlovchining sub'yektiv munosabatlarining ifodalanishi uchun ham ko'mak beradi. Bog'lovchi vositalarning qo'shma gapdagi ahamiyati haqida gapirib, M.I.Cheremisina shunday deydi: qo'shma gap tarkibidagi aloqa ko'rsatkichini o'z qimmatiga ko'ra sodda gapdagi kesim bilan qiyoslash mumkin: u qo'shma gapning tarkibiy qismidir".

So'zlovchi fikrni ixcham va ayni chog'da barcha ob'yektiv va sub'yektiv jihatlari bilan ifodalashga zaruriyat sezganda qo'shma gapga murojaat qiladi. Bir necha voqea va ular o'rtasidagi xilma-xil mantiqiy munosabatalar (maqsad, sabab-oqibat, shart, payt kabi)ni ifodalash uchun axborot beruvchi tomonidan jumlaning qo'shma gap tarzidagi tuzilishi, M.B.Lyapon ta'biri bilan aytganda, xulosa chiqarish operatsiyasiga o'xshaydi". Bunda axborot beruvchi axborotni maxsus mantiqiy ishlovdan o'tkazadi, ya'ni voqealar o'rtasidagi munosabatni baholaydi, aniqlaydi, unga o'z nuqtai nazarini bildiradi va hokazo. Endi gap ma'nosidagi ikki xil tabiatli mazmunni farqlash kerak bo'ladi. "Mazmuniy sintaksisning taraqqiyoti munosabati bilan,-deb yozadi V.A.Beloshapkova,-juda ko'p tilshunoslar tomonidan turli vaqtlarda aytilgan gap ma'nosida bir-biridan prinstitipial farqlanuvchi ikki tur mazmun-borliqni aks ettiruvchi sub'yektiv mazmun qo'shilgan, degan fikr alohida dolzarblik kasb etadi". Gap ma'nosidagi bunday mazmun turlari dastlab Sh.Balli tomonidan farqlangan. U ob'yektiv mazmunni "diktum", sub'yektiv mazmunni esa "modus" (modallik atamasi bilan aloqador) deb nomlagan. Sh.Balli atamalari bilan aytiladigan bo'lsa, muayyan bir diktum turli moduslar birga ifodalanishi mumkin. Modus denotativi voqeaning modal yoki sub'yektiv talqini demakdir. Ergash gapli qo'shma gaplarda u quyidagicha ifodalanishi mumkin:

Hq(men bilaman) +ki ← Tq;  
Hq(men ishonaman)+ki ← Tq;  
Hq(shunisi ma'qul)+ki ← Tq;  
Hq(men sizga to'g'risini ayt)+sam ← Tq;  
Hq(men o'ylayman)+ki ← Tq va hokazo.

Gipotaksis butunliklarning struktur va ma'no belgilarini aniqlash jarayonida gipotaksis kategoriyasini belgilash hamda tobe munosabatning mohiyatini aniqlash, bu jarayonda ergashtiruvchi bog'lovchi vositalarning o'rni va vazifasini oydinlashtirishga harakat qilamiz.

Gipotaksis butunliklarning qismlari-orasidagi aloqaning turli-tumanligi, ularning struktur va semantik xususiyatlari ularning nazariy asosini belgilashni talab etadi.

Struktur-semantik tasnif asosida gipotaksis butunliklarning tipik modellari va ularning variantalari, ularning funksiyalanishi hisobi bilan ajralib chiqadi. Gipotaksis butunlik (ergashgan qo'shma gaplar)-o'zining qurilish qoidalariga ega bo'lgan, monolitlashgan sintaktik birlik.

B.A.Beloshapkova, N.C.Pospelovlar bosh va ergash gaplarni gap qismlari deb, E.B.Krotovich, L.L.Iofik predikativ birliklar deb, B.G.Admoni va E.V.Guliga esa ergash gapli qo'shma gaplarning kompotentlari (elementar gaplar)deb, ergashgan qo'shma gaplarni predikativlikka ega bo'lgan statistik struktura yoki mazmuniy butunlik va intonatsion tugallikka ega bo'lgan kommunikativ birlikning dinamik strukturasi sifatida tushunadi.

Birinchi holatda, qo'shma gap qismlari gap deb va qo'shma gaplar ularning qo'shilmasidan hosil bo'ladi deb ta'riflanadi. Ikkinchi holatda hamma qo'shma gaplar gap deb, ularning qismlari esa gap emas deb talqin qilinadi.

Ergashtiruvchi bog'lovchi vositalarni o'rganar ekanmiz, ularning oddiy bog'lovchi emas, balki bir sintaktik butunlikni shakllantiruvchi, ham struktur, ham semantik jihatdan o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan birliklar sistemasini tashkil qilishini aniqladik. Ergashtiruvchi bog'lovchi vosita ikki sodda gapni ham grammatik, ham semantik jihatdan bog'lash natijasida yangi mazmunga, yangi sifatga ega bo'lgan sintaktik butunlikni yuzaga keltiradi. Bu butunlikning qismlari ajratilganda esa, ana shu yangi sifat yo'qoladi. Shu sababdan biz ergashtiruvchi bog'lovchi vositalarning sistemadagi o'rnini belgilashda an'anaviy tilshunoslikdagi ergash gapli qo'shma gaplar atamasi o'rnida gipotaksis butunlik (GB) atamasini qo'lladik. Ko'rinadiki, ergashtiruvchi bog'lovchi vosita faqat ikki gapni tobe munosabatga kiritish uchungina xizmat qilmaydi, balki bu ikki gap orasidagi semantik-sintaktik munosabatni ifodalaydi. Shu sababdan ularni sinsemantik birlik deb ayta olamiz. Ergashtiruvchi bog'lovchi vositalarning sinsemantik birlik ekanligining yana bir belgisi, ularning

ma'nosi faqat ikki butunlik orasidagi munosabatni ifodalaganda reallashadi. Bundan kelib chiqadiki, ergashtiruvchi bog'lovchi vositalarning ham o'ziga xos ma'nosi mavjud. Mustaqil so'zlarning leksik ma'nosi asosiy bo'lib, modal ma'nosi ana shu grammatik ma'nosi unga yo'ldosh bo'lsa, ergashtiruvchi bog'lovchi vositalarning grammatik ma'nosi asosiy bo'lib, modal ma'nosi ana shu grammatik ma'nodan o'sib chiqadi. Ergashtiruvchi bog'lovchi vositalarning grammatik ma'nosi ularning vazifasiga mos bo'lib, tobe munosabatni ifodalashi bilan tugallikka ega bo'ladi. Agar ergashtiruvchi bog'lovchi vositalar bir grammatik funktsiyaga ega bo'lsa ham, lekin ular anglatadigan modal ma'nolar bir xil emas. Mazmuniy sinsematiya hokim qism tarkibida ma'lum nutq fe'llari, bog'lamalar, modal baholovchi indikatorlar, olmoshlar bilan asoslanadi.

Ergashtiruvchi bog'lovchi vositalar parataksis gapni gipotaksis gapga aylantiruvchi vositadir. Gipotaksisni yuzaga keltiruvchi ergashtiruvchi bog'lovchi vositalarning grammatik ma'nolaridan tashqari modal ma'nolari ham borki, bu ma'nolar gipotaksisda asosiy rol oynaydi. Mustaqil so'zlarning leksik ma'nolari zamirida ularning grammatik ma'nolari shakllansa, ergashtiruvchi bog'lovchi vositalarning grammatik ma'nolaridan o'sib chiqadi. Ya'ni mustaqil so'zlarda leksik ma'nolari birinchi o'rinda tursa, ergashtiruvchi bog'lovchi vositalarning grammatik ma'nolari ikkinchi planda turadi. Lekin bu grammatik ma'nolardan kelib chiqadigan modal ma'nolar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu modal ma'nolar turlicha bo'lib, ular o'zaro turli semantik guruhlarga birlashadi. Sintaktik konstruksiyalardagi tobe munosabatni yuzaga chiqaruvchi ergashtiruvchi bog'lovchi vositalarning quyidagi munosabat turlariga ko'ra semantik guruhlarga ajratiladi.

1. Shartlanganlik munosabatiga ko'ra
2. Temporal munosabatiga ko'ra
3. Lokal munosabatga ko'ra
4. Koalitsion munosabatga ko'ra. Nisbiy
5. Taqqoslanganlik munosabatga ko'ra
6. Struktronimik munosabatga ko'ra

Har bir munosabat turlari o'z ichida yana kichik paradigmalarga bo'linib ketadi. Har bir paradigmanning birlashtiruvchi semasi bo'lgani holda, bir-biridan farqlovchi belgilari ham borligi e'tirof qilinadi. Ya'ni uyadoshlik (paradigmatik)munosabatda bo'lgan lisoniy birliklar muayyan birlashtiruvchi semaga ega bo'lishi bilan birga, o'zaro farqlovchi semaga ham ega bo'ladi. Ana shu farqlovchi semalar uya a'zolarining o'zaro zidlanishi uchun asos bo'ladi. Sistemaviy tilshunoslikda uya a'zolarining ana shunday farqlovchi semalar asosida zidlanishini belgilash markaziy o'rinni egallaydi. Chunki lisoniy birliklarni ma'lum sinflarga birlashtirish qanchalik muhim bo'lsa, sinf a'zolarini bir-biriga zidlash ham shunchalik ahamiyatlidir. Sinflarga birlashtirishda lisoniy birlik mazmuniy birlik mazmuniy mundarijasidagi birlashtiruvchi sema asos bo'lsa, bir-biridan ajratishda farqlovchi sema muhimdir. Shuning uchun sistemaviy tilshunoslik tadqiqotchilari zidlanish tushunchasiga katta e'tibor berib, tilda zidlanishdan boshqa narsa yo'qligini ta'kidlaydilar.

**Shartlanganlik munosabatiga ko'ra.** Bu paradigmaga kirgan bog'lovchilarni shartlanganlik semasi bir uyaga birlashtiradi. "Shartlanganlik-bu murakkab tuzilgan kompleks, munosabatlarning murakkab sistemasidir". M.I.Cheremisina va T.A.Kolosovalarning ko'rsatishicha, grammatik an'anaga ko'ra shartlanganlik munosabatlari o'z ichiga besh tip munosabatini oladi, ya'ni shart, sabab, to'siqsizlik, maqsad va natija munosabatlari. Shartlanganlik munosabatlarining barchasi bir g'oyaga asoslanadi, ya'ni bir voqea ikkinchisini keltirib chiqaradi yoki ikkinchi voqea birinchisining mavjudligiga ko'ra yuzaga keladi. Boshqacha qilib aytganda, mazkur munosabatlardagi asos g'oya "sabab-natija" (keng ma'noda)dan iborat bo'ladi. "Sabab-natija" shaklida bo'ladigan munosabatdagi voqealarning o'zaro aloqasi juda zich bo'ladi, zero, sababsiz oqibat va oqibatsiz sabab bo'lishi mumkin emas. Ta'kidlash lozimki, voqelar o'rtasidagi mantiqiy munosabatlar benihoya murakkab va xilma-xil. Bunday murakkab munosabatlarni o'rganishda ergashtiruvchi bog'lovchilarning o'z o'rnini bor, chunki bu munosabatni ifodalash uchun ergash gaplar qulay. Shu sababdan biz ergash gapli qo'shma gaplardagi voqealar munosabatini o'rgandik. Shartlanganlik tizimida darajalanish yuzaga keladi. Ular xilma-xil bo'lib, shartlanganlik asosida birlashadi va o'zaro ma'nodoshlik munosabatida bo'ladi. Ularni quyidagicha ajratdik:

- a) sabab munosabati paradigmasi
- b) shart munosabati paradigmasi
- s) to'siqsizlik munosabati paradigmasi
- d) maqsad munosabati paradigmasi
- e) natija munosabati paradigmasi.

Har bir paradigma a'zosi o'zaro sinonim bo'ladi. Demak, ular orasida ma'nodoshlik munosabati namoyon bo'ladi. Bundan tashqari bu bog'lovchilar boshqa ma'nolarni ham bildirib kelishi mumkin. Sabab munosabatida ergashtiruvchi bog'lovchi vositalar quyidagicha reallashadi:

1. Shuning uchun (shuning uchun ham, mana shuning uchun, mana shuning uchun ham, shunga ko'ra, o'shaning uchun, shu sababli, shu sababdan, shu tufayli):

Qiz elektrpayvandchilik kasbini qunt bilan o'rganib, jon-dili bilan ishlardi, shuning uchun zavodda maqtovgazazovar edi. (Sh.R) Husayn Boyqaro ham o'z saltanati v obro'sini orttirishdan manfaatdor edi, shu sababli u ma'lum vaqtgacha Navoiyning hamma madaniy tadbirlariga hayrihohlik bilan qaradi. (Darslik)

Modeli:

Tq → shuning uchun + Hq

Tq → shu sababli + Hq

Shuning uchun ergashtiruvchi bog'lovchisining bir qancha variantlari bor, ular hammasi sabab semasi bilan bir uyaga birlashsa-da, xususiy ma'nolari bilan darajalanadi. Masalan:

mana shuning uchun ham + Hq

mana shuning uchun

shuning uchun ham

Tq → shuning uchun

Yuqoridagi ergashtiruvchi bog'lovchi vositalar graduonimik qatorni tashkil qiladi.

**Shart munosabati paradigmasi.** Shart munosabatida ikkinchi voqeaning amalga oshishi uchun birinchi voqeaning bo'lishi shart ekanligini bildiradi. Shart munosabatida voqealar irreal (faziy) bo'ladi, ya'ni bu munosabatda voqealarning o'zaro aloqasi u qadar mustahkam bo'lmaydi, chunki bu munosabatda so'zlovchining nutqiy maqsadi bilan aloqador bo'lgan sub'yektiv yondashuvidir. Bu paradigma a'zolari ham ma'nodoshlik munosabatida bo'ladi, ularni shart semasi birlashtiradi. Ammo ularning o'z xususiy ma'nolari ham bor. Masalan, -sa yordamida bog'langan ergash gap aniq shartni bildirsa, -ganda edi orqali bog'langan ergash gap shart ma'nosi bilan birga achinish, afsus ma'nolarini ham bildiradi. -ki orqali bog'langan ergash gap shart ma'nosi bilan birga ishonch ma'nosini ham ifodalasa, -mi orqali bog'langan ergash gap istak, -ar ekan orqali bog'langan ergash gap esa bo'lishi mumkin bo'lgan voqeani bildiradi.

1. -sa: Qiz elektrpayvandchilik kasbini qunt bilan o'rganib, jon-dili bilan ishlasa, zavodda maqtovgazazovar bo'ladi.

Modeli:

Tq + sa → Hq

Shart paradigmasidagi ergashtiruvchi bog'lovchilarning umumiy va xususiy ma'nolarini quyidagicha ko'rsatish mumkin.

-sa  
-da edi  
-ki  
-mi  
-ar ekan

→ umumiy ma'no-SHART

Xususiy ma'nolari:

-sa → aniq shart

-da edi → afsus achinish

-ki → ishonch

-mi → istak

-ar ekan → bo'lishi mumkin bo'lgan voqea

Bu paradigma uzvlarida shart semasi birlashtiruvchi bo'lsa, afsus, achinish, ishonch, istak kabi semalar farqlovchi sema hisoblanadi.

**To'siqsizlik munosabati paradigmasi.** To'siqsizlik munosabati birinchi voqea ikkinchi voqeaning bajarilishi uchun shart bo'lsa-da, bu shart bo'lolmasligini bildiradi. To'siqsizlik munosabatida voqealar real bo'ladi, shart ma'nosi implitsit tarzda bo'ladi, ularni to'siqsizlik semasi bir uyaga birlashtiradi.

-sa ham: Qiz elektrpayvandchilik kasbini qunt bilan o'rganib, jon-dili bilan ishlasa ham, zavodda maqtovga sazovar bo'lmadi.

Modeli: Tq+-sa ham → Hq

Bu gapda "jon-dili bilan ishlagandan keyin maqtovga sazovar bo'lishi kerak" degan shart ma'nosi bor.

**Maqsad munosabati paradigmasi.** Maqsad munosabatida ikkinchi voqea birinchi voqeani amalga oshirishning maqsadli natijasi sifatida yuzaga keladi. Shartlanganlik munosabatlarining sabab vas shart turlarida keltirib chiqaruvchi voqea "1-voqea"ning tabiati asosiy bo'ladi, maqsad munosabatida kelib chiquvchi "2-voqea"ning tabiati birinchi asosga birlashadi. Maqsad munosabatida shartlanganlik munosabatining boshqa barcha turlaridan farqli o'laroq, voqealar o'rtasidagi munosabat yo'nalishi boshqacha, ya'ni boshqa turlarda "1-voqea-2-voqea" tarzida demak, to'g'ri yo'nalish, maqsad munosabatida esa "2-voqea-1-voqea" tarzida, demak, unga teskari yo'nalishda bo'ladi. Ana shu ikkinchi voqeani amalga oshirishdan kuzatilgan maqsad bo'ladi. Maqsad munosabatida maqsadni ifodalaydigan voqea irreal, faraziy, asosiy voqea esa hamisha real bo'ladi. Bu paradigma a'zolari ham ma'nodoshlik munosabatida bo'ladi, ularni maqsad semasi bir uyaga birlashtiradi.

-(ish)ishi uchun: Zavodda maqtovga sazovar bo'lishi uchun, qiz elektrpayvandchilik kasbini qunt bilan o'rganib, jon-dili bilan ishladi.

Modeli: Tq+-ishi uchun → Hq

**Natija munosabati paradigmasi.** Natija munosabati ikkinchi voqea birinchi voqeaning o'z-o'zidan voqe bo'ladigan natijasi sifatida yuzaga keladi. Natija ergash gapli qo'shma gaplarning bosh gap tarkibida *shunday, shunaqa, shunaqayam, shu qadar, chunonam* kabi so'zlar bo'ladi va ular bosh gapdagi voqeaning natijasi borligiga, ya'ni ergash gapga ishora qilib turadi. Bunday so'zlarni professor A.Nurmonov havola bo'laklar deb ataydi. "Havola bo'laklar" deganda umumiy tilshunoslikdagi "deyxis belgilar"ni nazarda tutamiz. Deyxis belgilarning mohiyati shundaki, ular mazmunni-voqea, belgi, narslarni bevosita ifodalamaydi, balki ularga ishora qiladi, shunga ko'ra ularni mazmunan kuchsiz, bo'sh so'zlar sifatida qarash mumkin. O'zbek tilidagi olmosh va boshqa nisbiy so'zlar ana shunday deyxis belgilar bo'lib, ular qo'shma gaplarda havola bo'laklar sifatida ishtirok etishi mumkin. Natija munosabatida voqealarning mazmuniy xususiyatlari asosan ikki xil bo'ladi. M.A.Asqarova ko'rsatganday, 1) natija ergash gapdagi fikr real bo'ladi; 2) natija ergash gapdagi fikr mo'ljallangan va taxmin qilingan bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, natija munosabatida ba'zan real voqealar o'rtasidagi, ba'zan esa irreal voqealar o'rtasidagi munosabat ifodalanadi. Bu paradigma a'zolari o'zaro ma'nodoshlik munosabatida bo'lib, ularni natija semasi bir uyaga birlashtiradi.

Shunday (shunaqa, shunaqayam, ham)-ki: Qiz elektrpayvandchilik kasbini qunt bilan o'rganib, shunday jon-dili bilan ishladi, zavodda maqtovga sazovar bo'ldi.

Modeli: Hq+shunday-ki → Tq

Demak, ergashtiruvchi bog'lovchilar bir paradigmada turlicha munosabatlar asosida yaxlit butunlikni tashkil etadi. Bu paradigma uzvlari-sabab, maqsad, natija, shart, to'siqsizlik ma'nolari shartlanganlik munosabati asosida sistemani tashkil etadi. Lekin nutqiy jarayonda xususiy ma'nolari bilan darajalanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Жамолдиновна, Б. М. (2020). Лингвокультурологические научные направления и интерпретация языка и культуры в современной лингвистике. *Вестник Приамурского государственного университета им. Шолом-Алейхема*, (3 (40)), 104-115.

2. Bekiyeva, M. J. K. (2022). DEVELOPMENT OF LINGUOCULTUROLOGY AND INTERPRETATION OF LANGUAGE AND CULTURE IN MODERN LINGUISTICS. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(1), 93-102.
3. Oblanazarovna, S. N. (2022). Psycholinguistics One of The Modern Branches of Linguistics. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 4, 277-280.
4. Bekiyeva, M. J. Q. (2022). Frazeologiya bo'limining mustaqil fan bo'lib shakllanishi. *Science and Education*, 3(1), 393-399.
5. Jamoldinovna, B. M. (2020). Lingvokulturologiyaning tadqiqot obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari. *Интернаука*, 18(147 часть 3), 69.
6. Bekiyeva, M. J. Q. (2022). FRAZEOLGIK BIRLIKLAR OBRAZLILIK VA EMOTSIONAL-EKSPRESSIVLIKNI YUZAGA KELTIRUVCHI ENG MUHIM VOSITA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 650-655.
7. Sattarova Nargiza Oblanazarovna. 92022/1/310. [LINGUISTIC VIEWS OF WOMEN'S COMMUNICATION](#) *Academicia Globe: Inderscience Research*, 83-88
8. Tojiboeva, M., Sattarova, N., & Qanoatova, N. (2021). TRADITION IN ABDULLA AVLONI'S POETRY. *TRADITION*, 7(11).
9. Sattarova Nargiza Oblanazarovna. (2022) QO'LLANISH DARAJASI CHEGARALANGAN SO'ZLAR VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Интернаука*, 79-82.
10. Sattarova Nargiza Oblanazarovna (2021) «MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS» *POLAND*, 169-177.
11. Gayratovich, E.N. (2019). USING VISUAL PROGRAM TECHNOLOGY METHODS IN ENGINEERING EDUCATION. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(10).
12. Gayratovich, E.N. (2021). SPECIFIC ASPECTS OF EDUCATIONAL MATERIAL DEMONSTRATION ON THE BASIS OF VISUAL TECHNOLOGIES. *International Engineering Journal For Research & Development*, 6(ICDSIIL), 3-3.
13. G'ayratovich, E. N. (2022). It Is A Modern Educational Model Based On The Integration Of Knowledge. *Eurasian Scientific Herald*, 5, 52-55.
14. Ergashev, N., Meyliqulova, M., Xamitova, R. N., & Namozov, D. (2021). ANALYSIS OF COPYRIGHT SOFTWARE CREATING VISUAL ELECTRONIC LEARNING MATERIALS. *Интернаука*, (18-4), 24-25.
15. Xolmurodov, A. E., & Ergashev, N. G'. (2021). SPECIAL ASPECTS OF DEMONSTRATION OF EDUCATIONAL MATERIAL BASED ON VISUAL TECHNOLOGIES. *Современное образование (Узбекистан)*, (7), 29-34.